

**MILLIY GVARDIYA QO'RIQLASH XIZMATI TOMONIDAN  
QO'RIQLANYOTGAN OBYEKTLARDA SODIR ETILGAN  
HUQUQBUZARLIKLER UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI**

Raximov Abrorbek Sobitxon o‘g‘li,

Mualliflar: Ilmiy tadqiqotchilar

Umarov Azizbek Alijon o‘g‘li  
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Namangan  
viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi.

### **Annotatsiya**

Ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqishda qo‘riqlash xizmati tomonidan huquqbuzarlarga nisbatan jazo qo‘llashning samaradorligini oshirish va protsessual jarayonlarni soddalashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Milliy gvardiya, qo‘riqlash xizmati, qorovul, harbiylashtirilgan qo‘riqlash, saf bo‘linmasi, miliitsiya, ma’muriy javobgarlik.

O‘zbekiston Respublikasida Qo‘riqlash xizmati o‘z faoliyatini 1952 yilning 29 oktyabrida 5 ta mototsikl va 49 ta velosiped bilan boshlagan. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash xizmati davlat miqyosida moddiy-tovar boyliklarning qo‘rig‘ini amalga oshiruvchi yagona tashkilot hisoblanadi. 1959 yilga kelib qo‘riqlashning bugungi kunda ham mavjud bo‘lgan ikki turi – qorovullik va harbiylashtirilgan turlari yuzaga keldi. Bunda harbiylashtirilgan bo‘linmalar o‘ta muhim obyektlarni qo‘riqlash uchun, qorovullik bo‘linmalar esa qolgan obyektlar himoyasi uchun tashkil etilar edi. O‘tgan asrning 60-yillari boshida qo‘riqlash bo‘linmalarini tarkibida shahodatlangan tarkib saf bo‘linmalarini tashkil etish amaliyoti joriy etila boshlandi. O‘zbekistonda ilk bor shahodatlangan tarkib qo‘riqlovi Chirchiq shahrida, 1964 yilda tashkil etildi va o‘zining ijobiy natijasini berdi. 1970 yilda Hukumat tomonidan qo‘riqlash xizmatida o‘z mablag‘lari hisobiga markazlashtirilgan qo‘riqlash punkti va markazlashtirilgan nazorat punktlari qurish uchun ruxsat bergandan keyin, texnik qo‘riqlash taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarildi. [1]

Qo‘riqlash xizmatidagi ilk o‘zgarishlar 1991 yilning noyabr oyida Ichki ishlar vazirligi huzurida Respublika «Qo‘riqlash» birlashmasi tashkil etilishidan boshlangan edi. Bu nafaqat qo‘riqlash xizmatining tarkibiy tuzilishiga islohhalar



kiritdi, balki undagi sifat o‘zgarishlarining ham debochasi bo‘ldi. O‘sha davrlarda xizmat tomonidan himoyaga olingan inshootlarning 30 foizini erkin yollangan qorovul va harbiylashtirilgan soqchilik qo‘rig‘idagi obyektlar tashkil etardi. Ma’lumki, qorovul qo‘rig‘ining texnik ta’minoti, ishonchlilik darajasi va samaradorligi militsiya qo‘rig‘iga nisbatan ancha past. Shundan kelib chiqqan holda, xizmatning tarkibiy jihatdan qayta tashkil etishga alohida e’tibor qaratilib, bosqichma-bosqich qorovullik tarkibidan voz kechib, qo‘riqlashning ishonchli turi – militsiya qo‘rig‘i kuchaytirib borildi. Mustaqillik yillarda xizmatda amalga oshirilgan tub o‘zgarishlar, asosan, xizmatni bozor iqtisodiga moslashtirish, bugungi kun sharoitiga to‘liq javob berishini ta’minalash va ko‘rsatilayotgan xizmatning ishonchliligi va samaradorligini oshirishga qaratildi. [1]

Bir so‘z bilan aytganda bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bo‘linmalarida xizmat ko‘rsatishning eng taraqqiy etgan, iqtisodiy jihatdan qulay shakllari yuzaga keldi va hayotga joriy etildi. Yanada tezkor, harakatchan, obyekt va xonadonlar qo‘rig‘i, xavfsizligi, mudofaasini ta’minalash borasida o‘z oldiga qo‘yilgan tezkor vazifalarni to‘liq bajara oladigan bo‘linmalar shakllantirildi. Faoliyatga ilg‘or, zamonaviy signalizatsiya va texnika vositalari joriy etib borilmoqda. [1]

Bulardan ko‘zlangan maqsad yagona – davlat va xalq boyligi, fuqarolarning mulklarini jinoiy tajovuzlardan ishonchli himoyalash, ularning to‘liq xavfsizligini ta’minalash hisoblanadi. [1]

Qo‘riqlash xizmati - O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlar, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini shartnoma asosida qo‘riqlashni tashkil etuvchi yuridik shaxs hisoblanuvchi tarkibiy bo‘linmalari tizimi hisoblanadi. [4]

Quyidagilar qo‘riqlash xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:  
shartnoma asosida davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalari obyektlarini qo‘riqlash;

qo‘riqlanayotgan obyektlarda ichki, ruxsat berish rejimlarini hamda jamoat tartibini ta’minalash, huquqbazarliklarning oldini olish va bartaraf etish;

qo‘riqlash vositalari va tizimlarini qo‘llash sohasida yagona texnik siyosatni va ulardan foydalanish ustidan samarali nazoratni ta’minalash, shuningdek, qo‘riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda joriy etish;



shartnoma asosida texnik qo‘riqlash vositalarini o‘rnatish (sozlash), ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ekspluatatsiya qilish;

davlat tashkilotlari, shuningdek, ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga tegishli qo‘riqlash bo‘linmalarida nazorat tekshiruvlarini o‘tkazish (huquq-tartibot organlari va harbiylashtirilgan tuzilmalardan tashqari), obyektlarda ichki, ruxsat berish rejimlariga rioya etilishiga doir tadbirlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish, aholi gavjum joylarda jamoat tartibini saqlashda huquq-tartibot organlariga ko‘maklashish. [2]

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining 248-1-moddasiga asosan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining mansabdor shaxslari ushbu Kodeksning 61, 185-1 (bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish bilan bog‘liq huquqbazarliklardan tashqari), 194-1, 195-1, 196 (O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlariga tegishli qismi bo‘yicha) va 210-1-moddalarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarliklarni aniqlagan taqdirda, Milliya gvardiyaning mansabdor shaxslari tomonidan ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ‘g‘risida bayonnomma tuzadi. [3] Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi bayonnomma ko‘rib chiqish uchun ushbu Kodeksning 282-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboriladi”-deb ko‘satilgan bo‘lib, hozirgi kunda zamon talablaridan kelib chiqqan holda fuqarolarning ishlarini ko‘rib chiqishda protsessual hujjatlar tayyorlarlash jarayonini tezlashtirish uchun yuqoridaq MJtKning 248-1-moddasiga qo‘srimcha ravishda 183-modda “Mayda bezorilik”ni, ya’ni “Jamoat joylarida uyatl so‘zlar bilan so‘kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik” hamda 54-modda “Epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish”. Karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi hamda tarqalishi sharoitida vakolatli organning maxsus talablariga zid ravishda jamoat joylarida niqobsiz bo‘lish” moddalarini qo‘shilishi natijasida, Milliy gvardiya Qo‘riqlash xizmati tomonidan qo‘riqlanayotgan obyektlarda aynan ushbu moddada nazarda tutilgan holatlar fuqarolar tomonidan sodir etilgan taqdirda, ushbu obyektda xizmat vazifasini olib borayotgan xodimlarning xizmat olib borish jarayonini osonlashtiradi, vaqt va sarf harajatlarni kamayishiga hamda ishlarni ko‘rib chiqishda sansolarlik xolatini oldini oladi.



## **Foydalanigan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi. ngoxrana.uz (internet tarmog‘i).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4997-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘risidagi kodeksi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonining 2019 yil 15 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash xizmati tomonidan obyektlarni qo‘riqlashni tashkil etish to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 204-son buyrug‘i.

